


To'ra Bobolov dehqonchilik bilan shug'ullanish istagidagi bandixonlik yoshlar bilan uchrashdi





Surxondaryo viloyatida yoshlarni foydali mehnatga jalb qilish orqali daromadini oshirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq va tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Birgina Bandixon tumanida 2080 nafar yigit-qiz "Yoshlar daftari"ga kiritilgan bo'lib, ularning orasidan dehqonchilik qilish istagini bildirgan yoshlarga yil davomida 748 gektar yer maydoni ajratish belgilangan. Ayni vaqtgacha 237 nafar yigit-qizga 47,5 gektar suvli, unumdor yer maydonlari ajatib berildi.

Jumladan, dehqonchilik qilish istagidagi 50 nafar yoshga "Saroy" mahallasida joylashgan "Bandixon g'ururi" fermer xo'jaligi hududidan 10 gektar yer 20 sotixdan bo'lib berildi. Tuman hokimligining yordami bilan yer ekinga tayyorlandi.





Dehqonchilik bilan shug'ullanish istagidagi bu yigit-qizlar bilan uchrashgan Surxondaryo viloyati hokimi yoshlar bandligini ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlar, dehqonchilik qilish uchun ajratilgan ekin maydonlaridan oqilona foydalanish evaziga mo'l hosil olish, daromad topish, xalqimiz dasturxonini sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan to'ldirish zaruriyati haqida so'z yuritdi. Yigit-qizlarning takliflari, fikr-mulohazalarini tingladi.



Tadbir davomida yoshlarga ekin maydonidan samarali foydalanish bo'yicha zarur tavsiya va maslahatlar berildi. Niyatiga erishgan, daromad manbaiga ega bo'lgan yigit-

qizlar katta kuch-g'ayrat bilan ishni boshlab yuborishdi.

— Shu kunga qadar ishsiz edim. Mana bugun ko'plab ishsiz tengdoshlarim qatori menga ham unumdor ekin maydonidan 20 sotix yer ajratishdi, — deydi Muslima Yoqubova. — Oila a'zolarim bilan birgalikda bu yerga birinchi hosil uchun kartoshka ekdik. Iyun oyida kartoshka hosilini yig'ishtirib olib, yer yong'oq ekishni niyat qilganmiz. Yerga mehr bilan qarab, astoydil mehnat qilib, ikkita hosildan jami 15 million so'm sof daromad olishni mo'ljal qilib turibmiz.



Shu tariqa, bir yilda ikki marta hosil olishni ko'zlagan yigit-qizlar o'zlariga ajratilgan yer maydonlarida hozir kartoshka ekishgan bo'lsa, ikkinchi ekin sifatida yer yong'oq ekishni rejalashtirishayapti. Bir so'z bilan aytganda, bugun bu yoshlarning quvonchi cheksiz. Ular berilayotgan bunday imkoniyatlardan unumli foydalanish harakatidalar.

Bu kabi tadbirlar viloyatning barcha tumanlarida amalga oshirilmoqda.